

контроля. В-третьих, установлено, что инвестиции в финансовое образование обладают долгосрочным мультипликативным эффектом, способствуя формированию устойчивой налоговой культуры и повышению доверия к государственным институтам. Цифровая трансформация бюджетно-налоговой системы усиливает данные процессы, однако требует параллельного развития цифровых финансовых компетенций населения. Реализация указанных мер обеспечит повышение эффективности бюджетных расходов, рост налоговых поступлений и формирование устойчивой финансовой системы, способной адаптироваться к внешним и внутренним экономическим вызовам.

Список использованной литературы:

1. Thaler Richard. *Behavioral Economics and Public Policy*. – American Economic Review, 2016.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *OECD/INFE Toolkit for Measuring Financial Literacy and Financial Inclusion*. – Paris, 2018.
3. International Monetary Fund (IMF). *Fiscal Monitor: Strengthening Fiscal Credibility*. – Washington, 2023.
4. World Bank. *Enhancing Government Effectiveness and Transparency: The Fight Against Corruption*. – Washington, 2020.

BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIYOTNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDAGI STRATEGIK USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Xudaybergenova Roza

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti


So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri investitsiyalarni jalb qilish bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga intilayotgan mamlakat barqaror o'sish va rivojlanishni ta'minlash uchun jozibali investitsion muhit yaratish muhimligini tan oladi. Investitsiyalar oqimiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri soliq siyosatidir. Soliq islohotlari qulay biznes muhitini yaratishda, xususan, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan "2025–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi" tasdiqlandi.

Davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlarni tizimlashtirish, budjet barqarorligini ta'minlash va intizomini kuchaytirish orqali budjet taqchilligini qisqartirib borish, budjet ochiqligini ta'minlash, soliq ma'murchiligini yaxshilash

va uning samaradorligini yanada oshirish, budget xarajatlari natijadorligiga erishish, davlat qarzini makroiqtisodiy xavfsiz darajada ushlab turish va davlat budjeti likvidligini oshirish Strategiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Bu maqsadlar o'z navbatida mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

2026-2028-yillarga mo'ljallangan Fiskal Strategiyaga muvofiq, tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish, soliq tizimini JST talablariga muvofiqlashtirishni jadallashtirish, "yashil soliqqa tortish" tamoyillari asosida soliq tizimini takomillashtirish, soliq tizimining adolatlilik tamoyillari asosida yuritilishini hamda budget daromadlarining barqarorligini ta'minlash soliq siyosatining o'rta muddatdagi asosiy yo'nalishlari sifatida saqlab qolinadi.(1-rasm)



1-rasm. Fiskal Strategiyasining soliq siyosatiga asoslangan yo'nalishlari

Soliq tizimini Jahon savdo tashkiloti (JST) talablariga muvofiqlashtirish jarayonini jadallashtirish tashqi investorlar uchun institutsional ishonch omilini kuchaytiradi. Xalqaro savdo qoidalariga mos fiskal muhit kapital harakatining erkinligi, bojxona va soliq tartib-taomillarining shaffofligi hamda kutilmagan fiskal cheklovlarning kamayishini ta'minlaydi. Bu omillar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

"Yashil soliqqa tortish" tamoyillarini joriy etish esa barqaror rivojlanish konsepsiyasiga mos ravishda ekologik javobgarlikni rag'batlantiradi. Uglerod emissiyasini kamaytirishga qaratilgan soliq mexanizmlari, energiya samaradorligini qo'llab-quvvatlovchi imtiyozlar va qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga beriladigan preferensiyalar "yashil investitsiyalar" oqimini kengaytiradi. Global kapital bozorlarida ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir sharoitda bu yondashuv mamlakatning investitsion reytingini oshirishga xizmat qiladi.

Soliq tizimining adolatlilik tamoyillari asosida yuritilishi hamda byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash esa fiskal barqarorlikni mustahkamlaydi. Byudjet defitsitining nazorat ostida bo'lishi va soliq ma'murchiligining shaffofligi investorlar uchun prognoz qilinadigan

makroiqtisodiy muhit yaratadi. Natijada, fiskal strategiyaning mazkur yo'nalishlari investitsion jozibadorlikni oshirishning kompleks va uzoq muddatli omili sifatida namoyon bo'ladi.

Soliq tizimining barqarorligi va prognoz qilinuvchanligini ta'minlashda investorlar uchun eng muhim omillardan biri fiskal qoidalarining tez-tez o'zgarishligi va uzoq muddatli aniqlikdir. Soliq yukini optimallashtirishda soliq stavkalarini pasaytirish emas, balki ularni iqtisodiy faollikka moslashtirish nazarda tutiladi. Differensial soliq mexanizmlari orqali ustuvor tarmoqlar, innovatsion loyihalar va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

Investitsion rag'batlantirish instrumentlarini takomillashtirishda amortizatsiya siyosatini tezlashtirish, reinvestitsiya qilingan foydaga imtiyozlar berish kabi mexanizmlar kapital qo'yilmalarni ko'paytiradi. Byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish. Infratuzilma, ta'lim va raqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan davlat investitsiyalari xususiy sektor uchun multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

2025-yil soliq tushumlarini, tahlil qiladigan bo'lsak yildan-yilga o'sish kuzatilmoqda.(1-jadval).

1-jadval

Soliq organlarining 2025-yilda budjetga tushumlari

Soliq turi	trln.so'm	2024-yilga nisbatan o'sish, %
Foyda solig'i	72,3	37,0
Qo'shilgan qiymat solig'i	45,2	14,0
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	42,4	20,0
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	25,8	28,0
Aksiz solig'i	20,0	13,0
Soliqsiz tushumlar(boj, jarima,yig'im va boshqalar)	19,5	31,0
Yer solig'i	10,0	22,0
Mol -mulk solig'i	8,0	18,0
Aylanmadan olinadigan soliq	3,1	8,0
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1,4	21,0
Jami:	247,8	24,0%

Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2025-yilda davlat byudjetiga 247,8 trln so'm miqdorida soliq tushumlarining ta'minlanishi va ularning o'tgan yilga nisbatan 24 foizga o'sishi fiskal siyosat samaradorligining muhim indikatori hisoblanadi. Mazkur dinamik o'sish makroiqtisodiy faollikning kengayishi, soliq ma'murchiligining takomillashuvi hamda soliqqa tortish bazasining kengayganligini anglatadi.

Soliq turlari kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'ati foyda solig'ida (37%) kuzatilgani e'tiborga loyiq. 72,3 trln so'mlik tushum korporativ sektor rentabelligi oshganini va biznes subyektlarining rasmiy iqtisodiy faoliyat doirasi kengayganini ko'rsatadi. Bu omil iqtisodiy o'sishning real sektor bilan

uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i (45,2 trln so'm, 14%) va jismoniy shaxslar daromad solig'i (42,4 trln so'm, 20%) bo'yicha o'sish ichki talab va bandlik ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasini anglatadi. Ayniqsa, JShODS bo'yicha o'sish ish haqi fondining kengayganini va daromadlarni legallashtirish jarayonlari samarali kechayotganini ko'rsatadi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (28%) va aksiz solig'i (13%) bo'yicha o'sish tabiiy resurslardan foydalanish hajmining ortishi hamda iste'mol bozori barqarorligini aks ettiradi. Shu bilan birga, mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha barqaror o'sish (mos ravishda 18% va 22%) hududiy fiskal salohiyatning mustahkamlanayotganini bildiradi. Soliqsiz tushumlarning 31 foizga o'sishi byudjet daromadlarining diversifikatsiyasi kuchayayotganini ko'rsatadi. Bu esa fiskal barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhimdir. Umuman olganda, 2025-yilgi ko'rsatkichlar soliq tizimining samaradorligi, iqtisodiy faollikning kengayishi hamda byudjet daromadlarining barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etadi. Mazkur jarayon investitsion muhit barqarorligi va makroiqtisodiy ishonchni mustahkamlash uchun zarur fiskal asosni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, byudjet-soliq siyosatini strategik jihatdan takomillashtirish investitsion jozibadorlikni oshirishning tizimli omili hisoblanadi. Fiskal barqarorlikni saqlagan holda soliq rag'batlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda qo'llash iqtisodiyotga uzoq muddatli kapital oqimini jalb etadi. Davlat tomonidan ishlab chiqiladigan soliq siyosati qisqa muddatli fiskal manfaatlar bilan cheklanmasdan, iqtisodiy o'sish va investitsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Strategik yondashuv, shaffoflik va barqarorlik investitsion muhitni yaxshilashning asosiy tamoyillari sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Александров Г. А., Скворцова Г. Г., Павлова Е. В. Роль налоговой политики в формировании инвестиционного климата региона // ПСЭ. 2014. №2 (50). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-nalogovoy-politiki-v-formirovanii-investitsionnogo-klimata-regiona>

2. Xudaybergenova, R. (2025). Soliq siyosatining mohiyati, vazifalari va investitsiya muhiti bilan o'zaro bog'liqligi. *Ilg'or Iqtisodiyot Va Pedagogik Texnologiyalar*, 2(1), 423-432. <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss1-pp423-432>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.04.2025 yildagi 210-son "2025 — 2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori

4. Linking business tax reform with government. Investment climate in practice. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/490c6998-06f2-107-bd4c-3baf2dc38d2/content>